

BUXORO VILOYAT PESHKU TUMAN FILIALI YER EGALARI, YERDAN FOYDALANUVCHILARNING QISHLOQ XO‘JALIK YER TURLARI VA ULARNING TAQSIMLANISHI

Qurbonova Xurshida Idayevna

"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutining
Katta o‘qituvchisi

Mahmudov Behzod Hoshim o‘g‘li

"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutining
2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Buxoro viloyat Peshku tuman yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning nazariy hamda ba’zi amaliy qirralari yoritilgan. Jumladan, yer resurslarini boshqarishning nazariy va huquqiy asoslari, mamlakat yer fondidan foydalanish tahlili, Buxoro viloyat Peshku tuman yer resurslarini boshqarish tizimi, tamoyillari, rivojlanish bosqichlari, boshqarish mexanizmlari, respublika, viloyat va tumanlarda yer resurslarini boshqarish bo‘yicha vakolatli organlar, Peshku tumanidagi mavjud yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha taqsimlanishi.

***Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jalik yerlari, yer eksplikasiyasi, Zaxira yerlar, Ijaradagi xususiylashtirilgan fermerlar, Tarixiy-madaniy axamiyatga molik yerlar.*

TYPES OF AGRICULTURAL LAND AND THEIR DISTRIBUTION OF LANDSOWNERS, LAND USERS OF BUKHARA REGION PESHKU DISTRICT BRANCH

ABSTRACT

The theoretical and some practical aspects of the use and management of land resources of Peshku district of Bukhara region are covered. In particular, the theoretical and legal foundations of land resources management, the analysis of the use of the country’s land fund, the land resources management system of Peshku district of Bukhara region, principles, stages of development, management mechanisms, competent bodies for land resource management in the republic, regions and districts, existing in Peshku district distribution by land users.

***Keywords:** Agricultural lands, land explication, reserve lands, leased privatized farms, lands of historical and cultural significance.*

KIRISH.

Qishloq xo'jaligi yerlari - xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarish vositasi sifatida rejali va uzluksiz foydalaniladigan yer uchastkalari va massivlari, ekinzorlar (haydalma yerlar), ko'p yillik ekinzorlar (bog'lar, rezavor meva maydonlari), pichanzorlar, yaylovlar hamda qo'riq-bo'z yerlar. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida Qishloq xo'jaligi yerga haydalma yerlar, qo'riq yerlar, tomorqa yerlari, ihota o'rmon mintaqalari, ko'p yillik ekinzorlar, pichanzorlar, yaylovlar kiradi. Ko'p yillik ekinzorlar — ekilgan daraxtzorlar, butazorlar va o'tsimon o'simliklar (bog'lar, uzumzorlar, rezavor mevali maydonlar) bilan band bo'lgan yer uchastkalari. Pichanzorlar — o't-o'lani pichan uchun o'riladigan yer maydonlari. Pichanzorlar ko'lob, quruq va botqoqlangan turlarga bo'linadi. Xo'jaliklar yerlari doirasida pichanzorlarning bo'lishi va ularning turlari hududning tuzilishi va tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi. Yer tuzuvchilarga ayniqsa qishloq xo'jaligida, ma'lum korxonalar hududida yerdan foydalanishni tashkil etishga bog'liq yanayam kengroq doiradagi masalalarni yechishga to'g'ri keldi. Har bir yer uchastkasining mo'ljallangan maqsadi, o'lchamlari, shakli, oqilona joylashishi aniqlandi. Yerlarning unumdorligini, yer turlarining mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarishning tashkil etilishini, texnikadan foydalanishni yaxshilash uchun hududiy sharoitlar yaratildi. To'g'ri almashlab ekishlarning dehqonchilik ma'daniyatini ko'tarishning ahamiyatli vositasi sifatida joriy etilishiga va o'zlashtirilishiga katta e'tibor berildi. Xo'jaliklarda ichki yer tuzishning bu masalalari hozirgi vaqtda ham rivojlanishni davom ettirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yer tuzishning tarixiy rivojlanishi jarayonining barcha bosqichlarida hamma vaqt asosiy o'rinni davlat o'ynadi. U yer munosabatlarini tartibga soladigan qonunlarni va boshqa bajarilishi majburiy me'yorlarni chiqaradi, yer tuzishning asosiy mazmunini va o'tkazilish tartibini belgilaydi. Davlat o'zining yer siyosatini harakatdagi qonunchilikka mos ravishda amalga oshiruvchi maxsus organlarni

yaratadi. Yer tuzish shuning uchun hamma vaqt u yoki bu darajadagi davlat tadbiri hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi asosiy qonuniyatlarni ifodalash mumkin: yer tuzish ishlab chiqarish ijtimoiy usulining tarkibiy qismi hisoblanadi; yer tuzish davlat maqomiga ega bo'ladi. yer tuzish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'zgaruvchi talablariga mos ravishda o'zgaradi va rivojlanadi; yer tuzishning mazmuni va usullari ilmiy asosda takomillashib boradi; Bu qonuniyatlarning har birini kengroq ko'rib chiqish kerak. Yerga xususiy mulkchilik yakka hokimligida yer tuzish barcha yer egalariга maksimal foydani ta'minlashga qaratiladi va birinchi navbatda xususiy yer mulkdorlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi. Mulkchilik shakllarining ko'pligi, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni takomillashtirish va yerdan foydalanishni ratsionallashtirish uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Yer tuzish bu vaziyatda yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning yangi zamonaviy shakllarini rivojlantirishga va mustahkamlashga, xalq xo'jaligini, birinchi navbatda agrosanoat majmuasida hududiy tashkil etishni yaxshilashga qaratilgan. U o'zining mazmuni bo'yicha katta xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega va o'ziga ham xo'jaliklararo, ham xo'jalikda ichki hududni tashkil etishni oladigan davlat tadbiri ekanligini ko'rsatadi.

NATIJARLAR.

O'rganishlar natijasida Peshku tuman hududida joyilashgan yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning qishloq xo'jalik yer turlari va ularning taqsimlanishi bo'yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga bo'lgan yer hisoboti 2023 yil 1 yanvar holatiga tuzilgan yer hisobotiga asos qilib olindi.

Hisobot yer eksplikatsiyasi bo'yicha haqiqiy, hududiy chegarasiga kirgan massivlar, tashkilot va muassasalar yordamchi xo'jaliklari, boshqa vazirliklar, tashkilotlarga qarashli qishloq xo'jalik korxonalarini va boshqa yer egalari hamda yerdan foydalanuvchilarning yer maydonlari, yer toifalari va turlari bo'yicha olindi.

Yer hisoboti yer eksplikatsiyasi va 22-22 a forma hisobotlari bo'yicha tumandagi barcha yerdan foydalanuvchilarning yer maydonlari quyidagicha tashkil etadi.

Mavjud yerdan foydalaiuvchshshr bo'yicha taqsimlanishi

Yer egalari yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer tarkibi	Umumiy yer maydoni		
	1.01.2022 yil	1.01.2023 yil	Farki +.-
Qishloq va suv xo'jaligiga qarashlisi	881917	881777,5	-139,53
Viloyatga karashlisi	27561	27560,98	-0,02
Boshka vazirlik tashkilotlarga karashlisi	77569	77569	
Ilmiy tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlari			
Yordamchi qishlok xo'jaliklari			
Jami qishloq xo'jalik korxonalari	986906	986906	
Shu jumladan ijaradagi fermer xo'jaliklari	26258	26258	
Ijaradagi xususiylashtirilgan fermerlar			
Aholi yashash joyi	234	234,02	+0,02
Sanoat, transport, mudofa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar	3003	3142,53	+139,53
Shu jumladan: Mudofaa vazirligi			
Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	39	39	
Tabiatni muhofaza kilish sog'lomlashtirish rekratsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar			
O'rmon xo'jaligi korxonalari	30234	30234	
Gidrotexnik va boshqa suv xo'jaligi inshootlar xamda kanal bo'yidagi yerlar	13055	13055	
Zaxira yerlar	0		
Jami yerlar	1033612	1033612	

MUHOKAMA.

Peshku tumanida yerdan foydalanuvchilarning jami yer maydoni 1033612 gektar bo'lib shundan, fermer xo'jaliklari 423 ta bo'lib foydalanishidagi yer maydon 26258,0 gektarni tashkil etadi.

2023 yil yer hisobotida viloyatga qarashlisi foydalanishidagi yer maydonidan 4,6 gektar o'tishi, Sanoat transport va aloqa satriga 4,6 gektar ketishi sababli

umumiy yer maydoni 28988,6 gektarni tashkil etdi.

2023 yil yer hisobotida boshqa vazirlik tashkilotlar yerlari o'zgarishsiz bo'ldi.

2023 yil yer hisobotida qishloq xo'jalik ilmiy-tekshiruv muassasalar va o'quv yurtlariga qarashli yerlarga o'zgarishsiz bo'ldi.

2023 yil yer hisobotida yordamchi qishlok xo'jaliklariga qarashli yerlarga o'zgarishsiz bo'ldi.

Yer hisobotining tomorqa yer fondiga o'zgarish bo'lmadi.

Sanoat transport va aloqaga qarashli yerlari o'zgarishsiz bo'ldi.

Yangi 23 satrda 2023 yil hisobida o'zgartirishlar kiritilmagan.

Viloyatga qarashlisi satridan Sanoat, transport, mudofa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar 139,53 gektar o'tishi hisobiga Viloyatga qarashli umumiy yer maydoni **30818,61** gektarni tashkil etdi.

XULOSA.

Yer tuzishni tashkil etish va o'tkazish tartibini takomillashtirish yo'li bilan yer tuzish samaradorligini oshirish va bashoratlarni rivojlantirish; - yer tuzish hujjatlarining huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va muhandis - texnik asoslanganligini ta'minlash uchun axborotlilikini oshirish; - yer tuzishni o'tkazishning majburiyligi to'g'risidagi qonunchilikka hamda yer tuzish hujjatlarining ishonchliligi aniqligi va yer bo'yicha huquqiy kafolatlarni taminlaydigan texnik reglamentlar va standartlarni ishlab chiqish hamda ularga to'liq rioya qilish; - birinchi navbatda yerning davlat mulki ekanligini hamda davlat va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda majmuaviy yer tuzish ishlarini o'tkazishni amalga oshirish; - yerdagi har qanday o'zgartirishlar faqat yer tuzish hujjatlari asosida turar joylar esa yer tuzish va shaharsozlik qurilishi hujjatlari asosida o'tkazilishiga qat'iy rioya qilish; - xususiy yer tuzuvchilarning faoliyatini joriy etish, takomillashtirish, attestatsiyadan o'tkazish (litsenziyalash)ni soddalashtirish, yer tuzish xizmatlari bozorining tadbirkorlik va mukammal faoliyaati sub'ektlarining o'zini - o'zi tartibga solish tizimlarini joriy qilishni qo'llab - quvvatlash; - yer tuzish rivojlanishini tezlashtirish bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. – 470 b.
2. Avezbayev S., S.N.Volkov. Yer tuzishning ilmiy asoslari.Darslik-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – 196 b.
3. Babajonov A.R., Raxmonov Q.R, G‘ofirov A.J. Yer kadastr. T.: TIMI, 2008 –220 b.
4. Варламов А.А., Гальченко С.А. Управление земельными ресурсами. Учебное пособие. М.: ГУЗ, 2005. – 240 с.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O,,zbekiston”, 2016. – 56 b.